

## **KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Qodirov Olim Odilovich*  
*University of Economics and Pedagogy*

**Annotasiya:** Maqola o‘quvchi yoshlarning kommunikativ kompetentligini, kommunikativ bilimlarini doimiy ravishda mustaqil to‘ldirib borish va ulardan ijodiy foydalanish ko‘nikmalari rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini muhokamam qiladi.

**Kalit so‘zlar:** kommunikativ kompetensiya, psixologik xususiyatlar, pedagogik muhit, uzlusiz ta’lim, bir xillik, an’anaviylik, o‘zaro munosabatlar, bir-birini tushunish, kompetensiya, o‘quvchi shaxsi, ta’lim mazmuni

**Аннотация:** В статье рассматриваются педагогико-психологические особенности развития коммуникативной компетентности школьников, способности постоянно пополнять свои коммуникативные знания и творчески их использовать.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, психологические характеристики, педагогическая среда, непрерывное образование, однородность, традиционность, взаимоотношения, взаимопонимание, компетентность, личность студента, содержание образования.

**Abstract:** The article discusses the pedagogical and psychological features of the development of the communicative competence of young students, the ability to continuously supplement their communicative knowledge and use them creatively.

**Key words:** communicative competence, psychological characteristics, pedagogical environment, continuous education, homogeneity, traditionality, mutual relations, mutual understanding, competence, student personality, educational content

Hozirda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari oldiga qo‘yilayotgan talablarga ko‘ra bo‘lajak kadrlarni kasbiy-kommunikativ faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish zarur, ya’ni ularda kasbiy malaka, o‘zgaruvchan sharoitga tez moslashish qobiliyati,. Buning uchun esa umumiyl o‘rta ta’lim jarayonidan o‘quvchilarni kommunikativ faoliyatga tayyorlab borish, ularda turli kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi.

Maqsadni aniq belgilash va ushbu maqsadga erishish yo‘lida har qanday obyektiv-subyektiv omillar yuzaga kelmasin, “o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo‘lishning o‘zi katta baxt, katta sharafdir”.<sup>1</sup>

Noyob kapital sifatida qadrlanayotgan ta’limning quyi bosqichlaridan ta’lim samaradorligini oshirish, takomillashtirilgan mexanizmlarni joriy etish, sifatli ta’lim

<sup>1</sup> O‘zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mipziyoevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi / <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

natijasida o‘quvchi-yoshlarni kelajak hayotdagi kommunikativ faoliyatga tayyorlash umumiy o‘rtta ta’lim maktablari o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan sanaladi. O‘quvchilarda amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, turli kompetentsiyalarni shakllantirish orqali ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etishga oid izlanishlar salmog‘i ortib borayotgan pallada, o‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish ham o‘z dolzarbligiga ega.

O‘qituvchi, avvalo, o‘quvchining kommunikativ kompetentsiyasi shakllangan yoki qisman shakllangan bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qaratishi va uning keyingi rivojlanishida mavjud vaziyatni e’tiborga olishi lozim. Shuningdek, o‘quvchilarning yoshi va o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kommunikativ kompetentsiyani bosqich shakllantirish jarayonini amalga oshirish lozim.

Umumiy o‘rtta ta’limda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, bu asosan o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari va pedagogik muhitga bevosita bog‘liqdir.

O‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash, jamoaning shaxsiy va guruhiy xususiyatlariga asoslangan metodologiyasini yaratishga imkon beradi. Shu bilan o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning aniq usullarini tanlash samarali bo‘ladi.

Izlanishlar doirasida tadqiqotchi-olimlarning “kommunikativ kompetentsiya” tushunchasi mazmuni va ushbu kompetentsiya tuzilishiga oid yondashuvlarni tahlil qilgan holda o‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning o‘ziga xos muhim pedagogik jihatlarini ajratib ko‘rsatildi (1.2.1-rasmga qarang):

**1.2.1-rasm. O‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning pedagogik o‘ziga xosliklari**

**O‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning pedagogik o‘ziga xosliklari**

o‘quvchi shaxsi

faoliyati

mavjud kommunikativ sifatlari

ta’lim mazmuni

tashkiliy-metodik jihatlar

maqsadli yo‘nalish

Bugungi axborotli jamiyat – bu eng oliy darajadagi kommunikativ kompetentsiyaga ega bo‘lishning muhim va ajralmas qismi bo‘lib, tubdan isloh etilib borayotgan “Yangi O‘zbekiston”ning uzluksiz ta’lim tizimi uchun muayyan

qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Ta’lim tizimlariga xos bo‘lgan bir xillik va an’anavylik ma’lum miqdorda mavjud bo‘lganligi bois yaqin kelajakdagi islohotlar ta’lim standartlari, kelajakdagi turli xil kompetentsiyalarni shakllantirish bo‘yicha ta’lim dasturlarining tuzilishini real hayotga mos tarzda to‘liq qayta o‘rganib chiqish, yangiliklar kiritishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim tizimining hozirgi rivojlanish bosqichi tub o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ta’lim tizimi strategiyasida gumanistik paradigma ustuvor hisoblanib, bu ta’lim tizimi shaxsga yo‘naltirilgan insonparvar demokratik maktabni shakllantiradi. Bunday insonparvar maktabning shakllanib borishida bolaga ishonish, jazo bermasdan o‘rgatish hamda bolalar va o‘qituvchilar o‘rtasida birgalikda hamkorlik o‘rnatishtiriladi. Hamfikrlikni kengaytirish, ijodiy ishlarning shakllanishi va o‘quvchi o‘zi xohlagani faoliyatni tanlashi, tanloviga mas‘uliyat bilan yondashush, mustaqil fikrlar uyg‘onishi kabi yangi maktabning omillari tarkib topa boshlaydi.

Bugungi kunda til o‘rgatish, ta’lim berishda bolaning rivojlanishiga, o‘zini-o‘zi rivojlantirishida qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ta‘limning bunday paradigmasisiga o‘tish bilan o‘qituvchiga sifat jihatdan yangi talablar qo‘yiladi.

Xo‘sish, yangi maktab til o‘rgatishining shakllanib, rivojlanishida bizga qanday o‘qituvchi mutaxassislar kerak? Pedagogik ta’lim oldida bolaning ichki dunyosini tushunadigan, muloqotga kirisha oladigan munosabatlarni yaratishga intiladigan, bolalar bilan yetarli darajada pedagogik muloqotga tayyor bo‘lgan mutaxassislar kerak. O‘quvchining qobiliyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarish, maktab jarayonida uning hissiy erkinligini ta‘minlash uchun professional insonparvarlik holatini o‘qituvchining mafkuraviy qarashlarida o‘z aksini topishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiyada o‘zaro munosabatlarga bugungi kun pedagogikasi tomonidan ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. O‘zaro bir-birini tushunish pedagogikada eng samarali usul hisoblanib, unda munosabatlarning eng to‘liq bo‘lishiga erishiladi, ta’lim jarayoni ishtirokchilari muloqotning asosiy shakli bo‘lgan suhbat qurish orqali o‘z pozisiyalarini kelishib oladilar. Muloqotda talabalarga nisbatan insonparvarlik pozisiyasini egallashga va o‘zlarining kasbiy vazifalarini to‘g‘ri shakllangan muloqot orqali amalga oshirishga qodir bo‘lgan, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyani shakllantira oladigan va rivojlantira oladigan o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoj o‘qituvchilarni maqsadli rivojlantirish muammosini oldimizga qo‘yadi.

Bugungi kunda kommunikativ kompetensiya muammosi zamonaviy pedagogika fani va o‘quv amaliyoti uchun ahamiyatli ekanligi yaqqol namoyon bo‘lib qoldi. Muammoning nazariy jihatdan ishlab chiqilgan bo‘lishiga qaramasdan maktabning pedagogik jarayonida “o‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatlari tubdan o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi deb aytish qiyin emas. Mavzu yuzasidan keng ko‘lamda olib borilayotgan qator taqiqotlar bu muammoning zamonaviy pedagogika fani va o‘quv amaliyoti uchun ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib turibdi. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilari uchun axloqiy xulq-atvor va yuksak darajadagi muloqot madaniyatiga ega bo‘lgan madaniyatli pedagog bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Закинов Э.Ю. Коммуникативность как базис человеческого общения // Педагогические образования и наука. – № 6. – Москва, 2014. – С. 82.
2. Педагогический словарь // Под. ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: Академия, 2008. – 337 с.
3. Мироненко Е.С. Компетенции XXI века vs образование XXI века. Вопросы территориального развития. Вып. 2(47). 2019.
4. Safarova R., Jo‘rayev R. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – 2015. – В. 184.
5. Муслимов Н.А., Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологиялари. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 б.
6. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tapixiy tafakkurni modepnizatsiyalashgan didaktik ta’milot vositasida rivojlantirish: ped. fanl. doktori ...diss. –Т.: 2016. – 290 b.
7. Pisdulova K.J. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari cotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: ped. fanl. doktori (DSc). ...diss. avtoref. – Т.: 2017. – В. 14.
8. Коммуникативная компетентность. Электронный ресурс: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Коммуникативная\\_компетентность](https://ru.wikipedia.org/wiki/Коммуникативная_компетентность). Дата обращения: 29.09.2019.